

QO'QON XONLIGI XUDOYORXON HUKUMDORLIGI DAVRIDA

Nizomiy davlat pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi

Nazirxonov Javohir Abduqaxxor o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII-XIX asrlardagi Qo'qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli tahlil qilingan. Shuningdek Qo'qon xonligidagi siyosiy vaziyat, Taxt uchun kurash, Ichki siyosat va isloxotlar, Maxalliy bekliklar va qabila boshliqlari bilan munosabatlar, Tashqi siyosat, Xorijiy va maxalliy davlatlar bilan savdo va diplomatic aloqalar, Ijtimoiy hayot va madaniyat, xonlikning hayot tarzi, Xudoyorxonning tarixdagi o'rni va ahamiyati.

Kalit so'zlar: Xudoyorxon, Qo'qon xonligi, Ijtimoiy norozilik, O'rda, Soliq tizimi, Xalq qo'zg'aloni, Muhammad Aminxo'ja, Xonlikning tugatilishi, Farg'ona vodiysi.

Annotation: In this article, the socio-economic situation in the XVIII-XIX centuries has been analyzed. The political situation in Kokand khanate, fighting for the throne, domestic policy and reforms, social life and tribal leaders, social life, and the lifestyle, the lifestyle, the khanate, the role and importance of Khuloykhan in history.

Keywords: Khudoyorhon, Kokand room, social protest, Order, public uprawing, Muhammad Aminkhoja, Muhammad Aminkhoba, termination of room Valley, Fergana Valley.

Аннотация: в этой статье была проанализирована социально-экономическая ситуация в столетиях XVII-XIX. Политическая ситуация в Коканд -ханате, борьба за престол, внутреннюю политику и реформы, социальную жизнь и лидеры племен, социальную жизнь и образ жизни, образ жизни, ханат, роль и важность Хулойкхана в истории.

Ключевые слова: Худойорхон, Команд Коканд, Социальный протест, Орден, Публичный Университет, Мухаммед Аминкходжа, Мухаммед Аминкхоба, прекращение долины комнаты, долина Фергана.

XVIII asrning boshlarida Farg'ona vodiysida shakllangan yangi davlat – Qo'qon xonligiga mahalliy aholi vakillari bo'lgan ming urug'i asos soldi.

Chunonchi, XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida ashtarxoniylarning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tushkunlik, Farg‘ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o‘sishi hamda 1704 yilda Chodak xo‘jalarining isyon ko‘tarib, Farg‘onaning bir qismini egallashi bunga shart-sharoit yaratib berdi. Ammo, Farg‘onaning shimoli va shimoli – g‘arbidagi Koson, Asht, Chodak hududlari xo‘jalar qo‘l ostida bo‘lsa – da, ular mustaqil davlatga asos sola olmadilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, ming urug'ining boshlig'i, taxminan 1669-1670 yillarda tug'ilgan Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad (1709-1721 yy.) Chodak xo'jalari qo'lida bo'lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709/1710 yilda Farg'ona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi. Ammo, uning hokimiyati hali ashtarxoniylardan to'la yoki batamom mustaqil emas edi. Chunki manbalarda Shohruhbiyning nomi ashtarxoniylar Abulfayzxondan so'ng tilga olinib, Shohruhbiyga Buxoro xoni tomonidan otaliq unvoni berilgani eslatiladi. Bu haqda tadqiqotchilarning ham fikrlari munozaralidir. Nima bo'lganda ham, Shohruhbiy Buxoro xonligidan mustaqil ravishda (nisbatan bo'lsa ham) siyosat olib borishga harakat qilib, minglar sulolasi tasarrufidagi yerlarni kengaytira boshladi. Shohruhbiy hukmronligi davrida Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi qishloqlar minglar sulolasi qo'lida bo'lgan.¹

Qo'qon xonligi hukmdorlari

1. Shohruhbiy – 1709-1721 yy.
2. Abdurahimbiy – 1721-1733 yy.
3. Abdukarimbiy – 1733-1750 yy.
4. Abdurahmonbiy – to'qqiz oy hukmronlik qilgan
5. Erdonabiy – 1751-1753yy.
6. Bobobek – 1753-1754 yy.
7. Erdonabiy (ikkinchi marta) – 1755-1769 yy.
8. Sulaymonbek – 1769 yilda olti oy hukmronlik qilgan
9. Norbo'tabek – 1770-1801 yy.

¹ Vohidov Sh. Qo'qonning muhtasar tarixi. ; Jizzax – 2011. 144-b

- 10.Olimxon – 1801-1810 yy.
- 11.Umarxon – 1810-1820 yy.
- 12.Muhammad Alixon – 1821-1842 yy.
- 13.Buxoro amiri noibi Ishoq mang'it – 1842 y. Uch oy.
- 14.Sheralixon – 1842-1844 yy.
- 15.Xudoyorxon – 1845-1858, 1863(to'rt oy), 1865-1875 yy.
- 16.Mallaxon – 1858-1862 yy.
- 17.Shohmurodbek – 1862-1863 yy.
- 18.Sulton Murodxon – 1863-1865 yy.
- 19.Nasriddinbek – 1875-1876 yy.

Bizning bugungi mavzuyimiz aynan Xudoyorxon hukumdorligi davri bo'lib Minglar sulolasiga mansub bo'lgan Qo'qon xoni (1845-1875- tanaffuslar bilan). Sheralixonning o'g'li. Qaynotasi Musulmonqul tomonidan taxtga o'tqazilgan. Ammo yosh bo'lganligi tufayli amalda davlat ishlarini Musulmonqul boshqarib borgan. Eng muhim lavozimlar qipchoqlar qo'liga o'tadi va ular hohlaganicha beboshliklar qila boshlaganlar. Natijada ichki kursh kuchayib, 1853-yilda qipchoqlar qirg'ini boshlagan. Buning oqibatida 20 mingga yaqin qipchoqlar o'ldirilgan, Musulmonqul esa Qo'qonda dorga osilgan. Shu yildan Xudoyorxon davlatni mustaqil idora qila boshlagan. Ammo, tajribasizligi tufayli ko'p xatolarga yo'l qo'ygan.

Qipshoqlar Xudoyorxonga qarshi kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchraganlariga qaramay, taslim bo'lishni istamaydilar va o'zlariga boshchilik qilish uchun Musulmonqulga taklif bildiradilar. Ammo ularga qarshi Xudoyorxon yurish boshlaydi va nihoyat, qipshoqlarni mag'lub etishga muvaffaq bo'ladi. Keyinchalik Xudoyorxon qipchoqlarni mamlakatdan butunlay yo'q qilish maqsadida Farg'ona vodiysiga ham odamlarini yuboradi va ularni qo'lga olib, o'ldirishni buyuradi.

O'zining zulmkor siyosati va aholi ehtiyojlarini mensimasligi bilan Xudoyorxon ham o'zidan oldin taxtga o'tirgan boshqa xonlar singari juda tez mashhur bo'ladi. Xonlikning shimoliy qismida ham mutlaq hukmronlik o'rnatilib, ushbu hududni boshqarish Toshkent beglar-begi unvoni berilgan Mirzo Ahmad

zimmasiga yuklatiladi. Mirzo Ahmad davrida Turkistondan Chu vodiysigacha muhim sug'orish ishlari olib boriladi, ammo 1858-yilda Mirzo Ahmadga qarshi qo'zg'olon uyushtiriladi. Ushbu qo'zg'olonni bostirish uchun Xudoyorxon hududga akasi Mallaxonni yuboradi. Biroq Mallaxon ukasining topshirig'ini bajarish o'rniga vaziyatdan unumli foydalanishga, akasini taxtdan ag'darishga harakat qiladi. Qo'zg'olonchilarni avf etadi va aholi uchun soliqlarni kamaytiradi. U, shuningdek, Toshkent va xonlikning butun shimoliy qismi yordamida qo'shin to'plab, akasi Xudoyorxonga qarshi yurish boshlaydi.² Mallaxon qo'shini Xudoyorxonni Somonchi qishlog'i yaqinida mag'lub etadi va xon Buxoroga qochishga majbur bo'ladi. Shundan keyin Mallaxon o'zini Qo'qon xoni deb e'lon qiladi.

1862-yilda Qo'qon xoni Mallaxon fitnachilar tomonidan o'ldiriladi va taxtga uning 17 yoshli jiyan Shohmurod da'vo qiladi. Qo'qon xonligi taxtini egallagan Shohmurodning eng birinchi chora-tadbirlaridan biri amakisiga yaqin bo'lgan barchani yo'q qilishdan iborat edi. Ushbu vaziyatdan tahlikaga tushgan Toshkent hokimi Qanoatshoh mudofaani kuchaytiradi va Xudoyorxonni taxtga qaytarishga va'da qilib, unga qo'shilishini taklif qiladi. 1863-yilda Xudoyorxon Toshkentga keladi. Bundan xabar topgan Murodxon 14 minglik qo'shin bilan Toshkentni qamal qiladi. Biroq Xudoyorxonning qo'shini qamaldan ozod bo'lib, Shohmurodni qo'lga olishga muvaffaq bo'ladi va yana Qo'qon xonligi taxtiga da'vo qiladi.

Xudoyorxonning taxtga egalik qilishini xonlikning katta qismi tan olmaydi. O'sha paytda Musulmonqulning o'g'li, taxtga da'vogardan hisoblanmish Alimqul Xudoyorxonning eng jiddiy raqibiga aylanadi. Alimqul Xudoyorxon qo'shinlariga qarshu hujum boshlaydi. Shu paytda Qo'qon xonligi hududida bo'lgan Buxoro amiri Shahrisabzda qo'zg'olon ko'tarilganligi sababdan o'z poytaxtiga qaytishga majbur bo'ladi. Ushbu vaziyatdan unumli foydalangan holda qipchoqlar va ba'zi qirg'iz qabilalari ham o'z qo'shinlarini yig'ib, bir vaqtning o'zida Qo'qon

² Nabiyev R, N. Qo'qon tarixidan xotira, - T.; Fan,- 1967 136-b

va Toshkentni qamal qiladilar. Alimqul esa qipchoqlar bilan kelishgan holda Xudoyorxonni taxtdan uzoqlashtirib, Mallaxonning o'g'lini xon etib tayinlashga kelishadi. O'sha paytda xon atigi 13 yoki 14 yoshda bo'lganligi sababli amalda Qo'qon xonligini Alimqulning o'zi boshqaradi.

Biroq Alimqulning mamlakatdagi hukmronligi uzoq davom etmaydi. Qo'qon xonligidagi ichki kurashlardan foydalangan Rossiya imperiyasi xonlikka tegishli Turkiston, Chimkent (1864) va Toshkentni (1865) bosib olishga muvaffaq bo'ladi. 1865-yilda Qo'qon xonligi taxtiga Xudoyqul („Belboqchixon“ degan laqabi ham mavjud) o'tiradi. Biroq uning hukmronligi ham uzoq davom etmaydi, u xon sifatida bor-yo'g'i 14 kun mamlakatni boshqaradi. Shundan so'ng esa Qashqarga qochib ketishga majbur bo'ladi. Bundan foydalangan Xudoyorxon esa yana taxtga da'vo qiladi.³

Xudoyqul Qoshg'arga qochib ketganidan keyin Xudoyorxon hech qanday qiyinchiliksiz Qo'qon taxtini qayta egallaydi, biroq Farg'ona hududiga bostirib kirgan Buxoro amirligi qo'shinlari tufayli amirlik hukmronligini tan olishga majbur bo'ladi. Ammo 1866-yilda Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi hududning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi amirlikning xonlikka nisbatan harbiy tahdidini yo'qqa chiqaradi. 1868-yilda Xudoyorxon Rossiya imperiyasining o'z xonligi ustidan suverenitetini rasman tan oladi.⁴

Xudoyorxon davrida qishloq xo'jaligiga katta e'tibor qaratiladi, yangi anhor va ariqlar qaziladi. Qo'qonda 1873-yil xon o'rdasi qurib bitkaziladi. Bundan tashqari, Xudoyorxon davrida „Madrasai Oliy“, „Madrasai Hokim oyim“, „Madrasai Sulton Murodbek“ quriladi^[3]. Xudoyorxonning farmoni bilan Mahzun (Ziyovuddin Ho'qandiy) 1696 sahifadan iborat „Shohnoma“ asarini yozadi (hozirgi kunda ushbu qo'lyozma Istanbulda saqlanadi).⁵

Xudoyorxon davrida xonlik hududi ancha qisqarib, turli soliqlar joriy etiladi. Buning ustiga 1868-yilgi Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufman bilan

³ Bobobekov H. N., Qo'qon tarixi, T., 1996; 123-b

⁴ Ziyoyev X, Z. Toshkentning Rossiyaga qo'shib olinishi. – T.; 1968-y 266-b

⁵ Nabiyev R, N. Qo'qon tarixidan xotira, - T.; Fan,- 1967 140-b

tuzilgan „teng huquqli“ shartnomaga muvofiq, rus savdogarlariga xonlikning hamma shahar va qishloqlarida bo‘lish va karvonsaroylar qurish, rus tovarlarini xonlik hududi orqali boshqa davlatlarga boj to‘lamasdan bimalol olib o‘tish huquqi beriladi. Rus savdogarlari qo‘qonlik savdogarlar bilan bir miqdorda boj to‘laydigan bo‘lishadi. Xudoyorxon Turkiya va Buxoro bilan yaxshi aloqada bo‘lishga, Angliya emissarlari bilan uchrashib, ulardan madad olishga intiladi, ammo yuzaga kelgan siyosiy vaziyat tufayli xon ko‘proq K. P. Kaufman bilan yaqinlashishga majbur bo‘ladi.

Text uchun kurashlar, o‘zaro urushlar, soliqlarning ko‘payib ketishi aholi turmushiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada xonlikda tez-tez qo‘zg‘olonlar uyushtiriladi. Shulardan eng kattasi 1873-yil boshlangan „Po‘latxon qo‘zg‘oloni“ hisoblanadi. Qo‘zg‘olonni bostirishning ilojini topa olmagan Xudoyorxon, barcha xazinani olib K. P. Kaufmandan harbiy yordam olish uchun Toshkentga qochib ketadi, so‘ngra u yerdan Orenburgga surgun qilinadi. Xudoyorxon u yerdan qochib, Makkaga boradi. Keyinchalik, Qo‘qon xonligining qolgan hududlarini ham Rossiya bosib olgandan so‘ng Xudoyorxon K. P. Kaufmanga rasman murojaat etib, siyosiy ishlarga aralashmaslikni va‘da qilgan holda Qo‘qonga qaytishga ruxsat so‘raydi, ammo uning bu iltimosi Kaufman tomonidan rad etiladi. Oradan biroz vaqt o‘tib, Xudoyorxon 2-marta murojaat qiladi va uning arizasi senatda ko‘rib chiqilib, Xudoyorxonga Qo‘qonga qaytishga ruxsat beriladi. Ammo bundan xabarsiz Xudoyorxon yashirin holda Qo‘qonga qaytishga harakat qiladi va yo‘lda vafot etadi.

Umuman olgan, XIX asrning o‘rtalariga kelib Qo‘qon xonligidagi siyosiy jarayonlar hamda ichki ahvol yanada og‘irlashgan edi. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, buning sababi birinchidan, o‘troq aholi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lgan qipchoqlar hokimiyatni tan olmaganlar. Xonlik hududlaridagi ba’zi viloyat hukmdorlari Musulmonqo‘lga qarshi chiqdilar. Ikkinchidan, hokimiyatda yuqori mavqeyni egallash hamda xonga ta’sir o‘tkazish uchun qipchoqlar orasida ham o‘zaro kurashlar borardi. Bu kurashlarda qipchoqlarning qulon urug‘idan bo‘lgan Musulmonquli ham faol ishtirok etgan. Uchinchi sabab esa, qipchoqlarning o‘troq aholiga nisbatan yuritgan siyosati edi. Qipchoqlar o‘troq aholiga nisbatan

bepisandlik nazari bilan qarab, boshqa elat va etnik guruhlarni kamsitganlar. To'rtinchidan esa, tashqi omil – Rossiya imperiyasining asta-sekinlik bilan xonlik hududlariga bostirib kirishi siyosiy jarayonlarning yanada keskinlashuviga sabab bo'lgan edi.

XIX asr manbalarida Qo'qon xonligi beklik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy – hududiy qismlarga bo'lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo'qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darhon. "Turkestanskiye vedomosti" (1876, №13) to'plamida esa Asaka, Marg'ilon, Baliqchi O'sh, So'x, Koson va O'zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi.

Qo'qon xonligi aholisining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham yashagan. Xonlikda yana qirg'izlar va qipchoqlar ham istiqomat qilganlar. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko'ligacha bo'lgan tog'li rayonlardan to Qashg'ar chegarasigacha bo'lgan yerlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog'lari, Badaxshon, Farg'ona vodiysi hududlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechirishgan. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo'qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho'llarda ko'chmanchi qozoqlar yashaganlar.

Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning boshlarida qirg'izlar, qalmoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoq, qozoq va qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysigacha ko'chib kelishga majbur bo'lganlar. Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo'lilar, hindlar, afg'onlar, arablar va boshqa Osiyo xalqlari istiqomat qilganlar. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan so'ng yahudiylar, armanlar va boshqa millat vakillari ham yashaganlar.

Qo'qon xonligida mamlakat poytaxti va boshqa ko'plab shaharlar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va kosibchilik va shug'ullanganlar.

Hunarmandchilik shaharlarda ixtisoslashgan ko'rinishga ega bo'lib, buyumlarning bir turi va biror qismini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar mavjud bo'lgan. Hunarmandlar o'z kasblarining sir-asrorlarini mukammal o'zlashtirgan mohir ustalari bo'lib, ishlab chiqargan mahsulotlarini yuksak san'at darajasiga ko'targanlar.

Xonlikning deyarli barcha shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning taraqqiyoti bir xil bo'lgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish o'zining ayrim xususiyatlari, ya'ni, mahsulotning turi, sifati bilan ajralib turgan. Hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to'quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoqlari keng rivojlangan bo'lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsuloti bilan dong taratgan. Misol uchun, Qo'qon shahri zargarlik va qog'oz ishlab chiqarish, Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov berish, xususan, pichoqchilik, Marg'ilon, Namangan va Andijon esa ipak gazlamalari, Toshkent o'zining tikuvchilik, to'quvchilik, cho'yan, temir-mis mahsulotlari bilan mashhur bo'lgan.⁶

XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi kuchli markaziy hokimiyatga ega bo'lgan markazlashgan davlat sifatida qaror topishi natijasida iqtisodiyotning birmuncha jonlanishi madaniy hayotga ta'sir etmay qolmadi. Mamlakat poytaxti Qo'qon va boshqa shaharlarda bir qator me'morchilik obidalari, yo'llar, ko'priklar, hammomlar qurildi, amaliy va hattotlik san'ati rivoj topdi. XIX asrning birinchi yarmida xonlikda Umarxon, Muhammadalixon, Nodirabegim, Xudoyorxon, Sulton Murodbek, Sulton Sayidxon, harbiy boshliqlardan Musulmonquli, Aliquli, Xolmuhammad mingboshilar va zamonasining ilg'or, ma'rifatli kishilari tomonidan me'moriy obidalar qurdirildi, shaharsozlik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Me'morchilikda asosiy e'tibor madrasalar, masjidlar, xonaqolar, darvesh va qalandarlar uchun takyaxonalar, qorixonalar, sardobalar, ko'priklar, hammomlar, bozor rastalari barpo etish ishlariga qaratilgan.

⁶ Mirzo Olim Maxmud Xoji. Tarixi Turkiston.- T.; 2008 352-b

So'nggi o'rta asrlarga kelib O'rta Osiyoning deyarli barcha hududlaridagi ilm-fan, ta'lim va ma'rifat sohalarida diniy ta'limotlar hukmronlik qila boshladi. Boshlang'ich maktablarda ham, madrasalarda ham asosiy e'tibor diniy ta'lim berishga qaratilgan. Diniy fanlarni o'qitish madrasalarning asosiy vazifasi hisoblanib, dunyoviy fanlar, ayniqsa, tabiiy fanlar taraqqiyotida bir muncha turg'unlik kuzatiladi. Madaniy hayotda yuzaga kelgan bunday vaziyat Qo'qon xonligidagi ilm-fanning ahvoliga, ayniqsa, bu soha rovojining biryoqlamalik xususiyatiga sabab bo'lgan edi.

Bu davrda aniq va tabiiy fanlarning xo'jalik va maishiy hayotda, ya'ni amaliyotda qo'llaniladigan sohalarigagina e'tibor qaratilgan. Kundalik turmushda tibbiyot, me'morchilikda matematika va handasa, sug'orma dehqonchilikda o'simlikshunoslik, gidrologiya va muhandislik ilmidan foydalanilgan. Shunga ko'ra, xonlikda aniq va tabiiy fanlardan tibbiyot, geografiya, tabiatshunoslik fanlari bilan shug'ullangan olimlarni ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzo Olim Maxmud Xoji. Tarixi Turkiston.- T.; 2008
2. Nabiyeu R, N. Qo'qon tarixidan xotira, - T.; Fan,- 1967
3. Ziyoyev X, Z. Toshkentning Rossiyaga qo'shib olinishi. – T.; 1968-y
4. Bobobekov H. N., Qo'qon tarixi, T., 1996
5. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий (Фарғона чор мустамлакаси даврида). Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Воҳидов, Д.Сангирова. – Тошкент: Маънавият, 1999
6. O'zbekiston tarixi 1-qisim. T.; "Universitet", 1997
7. www.ziyouz.com kutubxonasi
8. www.viki.com kutubxonasi